

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
ARAB TILSHUNOSLIGIDA TAOM NOMLARINING
O'RGANILISHI

BARNOXON NAILDJANOVNA ISMAILOVA

2 - bosqich magistranti

O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida taom nomlari ayrim xududlar misolida maxsus tadqiq etilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida M.Xudayarovaning "O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog'iston hududi materiallari asosida) mavzuidagi tadqiqotida qoraqalpoq tilidagi taom nomlari keltirilib, leksik semantik, struktur va derivation xususiyatlari yoritilgan. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik xususiyatlari ayrim maqolalarda ham yoritilgan

Kalit so'zlar: O'zbek tilshunosligi, taom nomlari, arabcha taom nomlari, yong'oq holva.

Kirish qismi: O'zbek tilshunosligida taom nomlari monografik aspektda tadqiq etilgan. Xususan, M.Xudayarovaning "O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog'iston hududi materiallari asosida) mavzuidagi tadqiqot ishiida qoraqalpoq tilidagi taom nomlari tahlil qilingan. Mazkur dissertatsiyada Qoraqalpog'iston h ududida yashovchi o'zbek xalqi shevalaridagi taom nomlarining lisoniy tahlili amalga oshirilgan. Xususan, taom nomlari mavzuiy jihatdan tasniflangan, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining qadimiy variantlari aniqlanib, tahlil qilingan. Taom nomlarining yasalishi, boyish yo'llari, qoraqalpoq, qozoq, turkman tillaridagi taom nomlari bilan o'xshashlik va farqli belgilari qiyosiy tadqiq qilingan, shuningdek, Qoraqalpog'iston hududida yashovchi o'zbek xalqi hayotidagi turli xalq marosimlari bilan bog'liq bo'lgan taom nomlarining lingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

N.Ikromovaning tadqiqoti ishida Toshkent shevasida uchraydigan taom

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

nomlari tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnda qo‘llangan taom nomlarining lingvistik, lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar uchraydi. Masalan, T.Tog‘ayevning «Alisher Navoiy asarlari tilidagi taom nomlar» nomli maqolasida adib asarlarida qo‘llangan taom nomlari tasniflanib, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan, taom nomlarining o‘zbek tilining tarixiy va hozirgi zamondagi holatlari o‘zaro qiyoslangan. Muallif Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan taom nomlarini dastlab quyidagi ikki leksik-semantik guruhga ajratgan: I. Qanday mahsulotlardan tayyorlanishiga ko‘ra atalgan taom nomlari. II. Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari.

U birinchi guruh taom nomlarini ovqatlar qanday mahsulotdan tayyorlanishi va biror marosimga mo‘ljallanishiga asoslanib yana besh guruhga ajratgan: 1. Un yoki xamirdan tayyorlanadigan taom nomlari. 2. Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari. 3. Go‘sht va yog‘dan tayyorlanadigan taom nomlari. 4. Sut mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taom nomlari. 5. Aralash masalliplardan tayyorlanadigan taom nomlari.

Maqlada A.Navoiy asarlarida qo‘llangan quyidagi arabcha taom nomlari keltirilgan: *halim, qurs, qursi qiyr, asal, shahd, fatir, halvo, taranjabin, sikanjabin* kabilar.

Muallif A.Navoiy asarlarida uchragan quyidagi arab tilidan o‘zlashgancha qurs taom nomiga izoh bergan. Bu so‘zning kulcha nonni anglatishi, ammo shoir tomonidan non ma’nosida ishlatilganligini uning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi “*Ibriq qoshida ikki uluq qurs ko‘rdum*” jumlesi misolida asoslagan.

Shuningdek, maqlada o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan *fatir/patir* so‘zi ham tahlil qilingan. Ushbu so‘zning o‘zbek tiliga fonetik jihatdan o‘zgargan holda, ya’ni patir shaklida qabul qilinganligi qayd etilgan. Ushbu so‘z A.Navoiy asarlarida *fatir* shaklida qo‘llangan: *Ul o‘t ichida quyosh fatiri, Oyni ne deyinki, qurs qiyri.*

O‘zbek tili taom mikromaydoni tarkibidan o‘zbekcha, fors-tojikcha, ruscha, arabcha, uyg‘urcha taom nomlari o‘rin olgan. Bu holat o‘zbek tili lug‘at tarkibiga turli xalq taomlari nomlari o‘zlashganligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

leksikasida turli xalqlar taomlari nomlarining uchrashi xalqlarning o‘zaro madaniy, iqtisodiy aloqasi, bir makonda yoki bir-biriga yaqin joylarda yashaganliklari, hamkorlikda birga mehnat faoliyati olib borishlari kabi turli omillar bilan bog‘liq.

O‘zbek tili taom mikromaydoni tarkibida quyidagi arab tilidan o‘zlashgan taom nomlari kuzatiladi: *patir, kabob, holva, murabbo*. O‘zbek tilida shirinliklarni anglatuvchi arabcha taom nomlari ham kuzatiladi. Masalan, holva so‘zi ham shirinlik turini anglatadi. Bu so‘z bilan hosil qilingan mag‘iz xolva, bodroq holva,

yong‘oq holva, kunjut holva, shokoladli holva kabi holvaning turli masalliqlar bilan tayyorlanuvchi turlari nomini anglatadi. Manbalarda “*Lavz*”, “*To‘y*”, “*Sovunak*” kabi holva turlari nomlari ham keltirilgan.

Yana bir shirinlikning nomi murabbo bo‘lib, bu so‘z ham rab tilidan o‘zlashgan. Murabbo mevalardan shakar qushib tayyorlanadigan shirinlik turini anglatadi. Qanday mevadan tayyorlanishiga ko‘ra murabboning olcha murabbo, behi murabbo, anjir murabbo, olma murabbo, uzum murabbo, olxo‘ri murabbo, qulupnay murabbo kabi turlarini anglatuvchi nomlar mavjud.

O‘zbek adabiy tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan yana bir taom nomi bu somsadir. Somsa – xamirli taom turiga kiradi. O‘zbek pazandaligida somsa, asosan, tandirga yopib tayyorlanadi. Hozirgi kunda gaz duxobkalarida ham pishiriladi. Har qanday somsa tayyorlash uchun bug‘doy unidan xamir qorilib, jild tayyorlanadi. Go‘sht ishlatalidigan somsaning ba’zi turlari uchun oshirilgan, ba’zan esa oshirilmagan xamir tayyorlanadi, tandirga yopishdan oldin qizigan tandirga namakob sepiladi (ayrim hollarda duxovka yog‘lanadi). somsaning masalliqlariga qarab far-muda somsa, go‘sht somsa, varaqi somsa, ko‘k somsa, qovoq somsa, yalpiz somsa, kartoshka somsa kabi turlari bor.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, valima bid’at-xurofot va isrofgarchilikdan chetlangan holda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan islomiy marosimlardandir. Afsuski, bugungi kunda ushbu muqaddas marosimning asl mohiyati e’tiborsiz qoldirilayotgan holatlar ham uchramoqda. Ayrimlar boshqalarga taqlid qilib, valimani gunoh-ma’siyat bazmiga aylantirib olgan. Bunday g‘ayri-islomiy va g‘ayri-insoniy to‘ydan so‘ng xayr-baraka va baxt-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

saodatni qanday umid qilish mumkin?! Holbuki, Alloh taolo O‘ziga itoat etgan bandalarga baraka va saodat berishini, gunohlarga sho‘ng‘iganlarni esa, qattiq azob-uqubatga duchor qilishini Qur’oni karimda ochiq bayon qilgan. Yosh oilalarda bo‘layotgan ajrashishlarning asosiy sababi ham shu. Ular asl mohiyatga e’tibor bermay, o‘tkinchi orzu-havasga berilib ketgani uchun baxtsizlikka uchramoqda. Jamiyatdagi bunday illatni bartaraf etish uchun yoshlarga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish kerak. Zero ilm va yaxshi tarbiya insoniyatning yo‘lini yorituvchi mash’aladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."
2. Kasimova, Sarvinoz Sayfullaevna. "Transformación de frases y sus destrucciones." Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias 3 (2024): 740-740.
3. Касимова, С. (2020). Работы великих турецких ученых, писавших об арабских пословицах и пословицах. Востоковедения, 1(1), 154–166. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/16641>
4. Begmatova B., Kasimova S., Zaynudinova S. Syntactic and semantic analysis of constraints, states and absolute masdars //International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 3. – С. 284-291.
5. LAFASOV, URAK PAZILOVICH, and MARXABO RAXMONKULOVNA ABDULLAYEVA. "ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDAGI JONLANTIRISH VA TASHXIS TASVIR USULLARI." TADQIQOTLAR. UZ 39.3 (2024): 65-70.
6. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. *Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal*, 10(1), 3601-3609.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

7. Косимова, С. (2021). «Всесторонняя» работа Махмуда Замахшари как основа более поздних грамматических теорий. *Восточный факел*, 1(1), 125–131. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/15093>
8. Saodat, Saidakbarova. "The Study of Phraseology and Its Theoretical Features." *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics* 11 (2021): 97-101.
9. Saidakbarova Saodat Parkhadjanovna. Discovering culture through the gastronomic phraseology (in English and Uzbek languages) 2020/6. The XVIII International scientific and practical conference Modern view and research. pp.193-196
10. Saidakbarova, Saodat Parhadjanovna. "Fruit And Vegetables... Exploring Gastronomic Idioms In English And Uzbek (The Linguo-Cultural Analysis Of English And Uzbek Phraseological Units With The Components Fruit And Vegetables)." *Current Research Journal of Philological Sciences* 1.01 (2020): 24-32.